


**“O‘ZBEKINVEST”
EKSPORT-IMPORT SUG‘URTA KOMPANIYASI
AKSIYADORLIK JAMIYATI**

**“O‘ZBEKINVEST”
EKSPORT-IMPORT SUG‘URTA KOMPANIYASI
AKSIYADORLIK JAMIYATINING
DAVLAT XARIDLARINI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH TARTIBI
TO‘G‘RISIDAGI NIZOM**

2025 yil “03” MARTdan

Kod: RD-GK 18-04 uzb

Toshkent sh.



**GK 18**

«O‘zbekinvest» EISK AJ davlat xaridlarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom

RD-GK 18-04 uzb


22 varaqdan 2-chisi
28.03.2022

Hujjat tarixi yozuvi

[illegible]

 O'ZBEKINVEST SUG'URTA KOMPAANIYASI GK 18	«O'zbekinvest» EISK AJ davlat xaridlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom	RD-GK 18-04 uzb 22 varaqdan 3-chisi 28.03.2022
---	---	---

«TASDIQLAYMAN»
“O'zbekinvest” eksport-import
sug'urta kompaniyasi”
aksiyadorlik jamiyati
Bosh direktori


B. Azimov
“ 03/04/2025 yil

“O'ZBEKINVEST” EISK AJNING DAVLAT XARIDLARINI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TARTIBI TO'G'RISIDAGI NIZOM

1-BO'LIM. MAQSADLAR

1.1. Ushbu “O'zbekinvest” EISK AJning davlat xaridlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom (keyingi o'rinlarda “Nizom” deb yuritiladi) davlat xaridlarini, shu jumladan maxsus axborot portalida elektron shaklda xaridlarni tashkil etish va o'tkazish tartibini belgilash maqsadida ishlab chiqilgan.

1.2. Mazkur Nizom “Davlat xaridlari to'g'risida”gi 2021-yil 22-apreldagi O'RQ-684-sonli Qonuniga muvofiq ishlab chiqilgan. O'RQ-1005-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.11.2024-y., 03/24/1005/0977-son

2-BO'LIM. QO'LLASH DOIRASI

2.1. Mazkur Nizom talablari Kompaniyanig barcha tarkibiy, hududiy va ixtisoslashtirilgan bo'linmalarida qo'llaniladi.

3-BO'LIM. TA'RIFLAR

Ushbu Nizomda quyidagi atamalar va ta'riflar qo'llaniladi:

3.1. Kompaniya (davlat buyurtmachisi) - “O'zbekinvest” eksport-import sug'urta kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati, uning filiallari va ixtisoslashtirilgan sho'ba korxonalari.

3.2. Davlat xaridlari – Kompaniyaning tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) bo'lgan ehtiyojlarini to'lov asosida qondirish jarayoni;

3.3. Tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotib olish bo'yicha xarid komissiyasi (keyingi o'rinlarda Komissiya deb yuritiladi) - Kompaniyaning xarid qilish tartib-taomillari g'olibini tanlash to'g'risida qaror qabul qilishga vakolatli kollegial organi bo'lib, uning manfaatlarini himoya qilish, Kompaniya mablag'laridan maqsadli va oqilona foydalanilishi, sifatli tovarlar, ishlar va xizmatlar yetkazib berilishi ustidan nazorat o'rnatish maqsadida tuziladi.

Xarid komissiyasining vazifalari va funksiyalari, shuningdek ish tartibi “O'zbekinvest” EISK” AJning tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotib olish bo'yicha xarid komissiyasi to'g'risida”gi Nizomga (RD-58) muvofiq belgilanadi.

3.4. Elektron davlat xaridlari - axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda davlat xaridlarini amalga oshirish shaklidir.

 O'ZBEKINVEST SAVDO VA KOMANIYALAR GK 18	«O'zbekinvest» EISK AJ davlat xaridlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom	RD-GK 18-04 uzb 22 varaqdan 4-chisi 28.03.2022

3.5. Maxsus axborot portali (keyingi o'rinlarda Portal deb yuritiladi) — bu operatorning davlat xaridlarini amalga oshirish, davlat xaridlari to'g'risidagi e'lonlarni, davlat xaridlari natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni, xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflarini va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa ma'lumotlarni elektron shaklda joylashtirish va ko'rish, shuningdek, elektron davlat xaridlarini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi maxsus elektron platformasi.

3.6. Mas'ul xodim - kompaniya nomidan xarid tartib-qoidalarini tashkil etish va o'tkazish uchun mas'ul bo'lgan va Kompaniya/filialning buyrug'i bilan tayinlangan kompaniya xodimi.

3.7. E'lon – davlat xaridlarini amalga oshirish usuli, talablari va shartlari, takliflarni taqdim etish muddatlari hamda tartibi ko'rsatilgan, maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga davlat buyurtmachisi tomonidan joylashtiriladigan bo'lajak davlat xaridlari to'g'risidagi axborot;

3.8. Elektron do'kon – davlat xaridlarining elektron tizimidagi maxsus maydonda savdolari elektron shaklda amalga oshirishni nazarda tutuvchi, maxsus talablar qo'yilmaydigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli;

3.9. Boshlang'ich bahoni pasaytirish bo'yicha kim oshdi savdosi (keyingi o'rinlarda auktsion deb yuritiladi) – davlat xaridlari elektron tizimining maxsus platformasida davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli bo'lib, uni tashkil etish chog'ida narx g'olibni aniqlashning yagona mezon bo'ladi;

3.10. Eng yaxshi takliflarni tanlash – xarid qilish tartib-taomillarining bir nechta ishtirokchisidan olingan takliflarni taqqoslash asosida davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli;

3.11. Tender — davlat xaridini amalga oshirishning raqobatli tartib-taomili vositasida davlat xaridlarining ijrochisini aniqlash tartib-taomilini nazarda tutuvchi tanlov bo'lib, uning natijalariga ko'ra davlat xaridlari to'g'risidagi shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlarini taklif etgan xarid qilish tartib-taomillarining ishtirokchisi g'olib deb topiladi;

3.12. Boshlang'ich narx - Kompaniya tomonidan ochiq ma'lumot manbalari yoki boshqa ishonchli manbalardan olingan ma'lumotlardan foydalangan holda mahsulot (ish, xizmatlar) birligining qiymati asosida belgilanadi.

3.13. ERI - elektron raqamli imzo.

3.14. G'olib — xarid qilish tartib-taomillari yakunlariga ko'ra taklifi eng maqbul deb topilgan xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi.

3.15. BHM – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlangan bazaviy hisoblash miqdori.

3.16. Ikki bosqichli davlat xaridlari — texnik jihatdan murakkab bo'lgan muayyan qiymatli tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) bir shartnoma bo'yicha ikki o'zaro bog'liq bosqichda o'tkaziladigan davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli.

3.17. Kichik qiymatli xaridning soddalashtirilgan tartib-taomili — davlat xaridlarini xarid qilish tartib-taomillarining ochiq axborot manbalaridan olingan narxlarni solishtirish yo'li bilan yoki tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) kamida uchta potensial yetkazib beruvchisidan narxlarni so'rash orqali amalga oshirishning raqobatli usuli.

4-BO'LIM. NORMATIV ASOSLAR

Ushbu Nizomni ishlab chiqishda quyidagi normativ hujjatlardan foydalanilgan:

4.1. ISO 9001:2015 Sifat menejmenti tizimlari - Talablar;

4.2. O'z DSt ISO 9001:2015;

4.3. Ma'muriy-xo'jalik xizmati to'g'risidagi Nizom (RD-GK 18-01);

4.4. "O'zbekinvest" NEIIS SMS hujjatlarini boshqarish tartibi (PK-01);

 O'ZBEKINVEST SHARHATTA KOMPAANIYASI GK 18	«O'zbekinvest» EISK AJ davlat xaridlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom	RD-GK 18-04 uzb 22 varaqdan 5-chisi 28.03.2022
--	---	---

4.5. Xarid komissiyasi to'g'risidagi nizom (RD-58);

4.6. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi O'RQ-684 sonli "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni;

4.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentabrdagi PQ-3953-sonli "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

4.8. O'RQ-1005-sonli Qonuniga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.11.2024-y., 03/24/1005/0977-son

Mazkur Nizomni tasdiqlanishi bilan "O'zbekinvest" EISK AJning 06.04.2022 yildagi Davlat xaridlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

5-BO'LIM. DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHIRISH JARAYONIDA KOMPANIYANING HUQUQLARI, MAJBURIYATLARI VA JAVOBGARLIGI

5.1. Kompaniya quyidagi huquqlarga ega:

- mustaqil ravishda yoki ixtisoslashgan tashkilotni jalb qilgan holda tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) boshlang'ich bahosini belgilash, qonun hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno;
- davlat xaridlarini o'tkazish to'g'risidagi e'lonni o'zining rasmiy veb-saytida yoki o'zining bosh organing rasmiy veb-saytida, shuningdek ommaviy axborot vositalarida joylashtirish;
- xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilaridan davlat xaridlari to'g'risidagi shartnomani (keyingi o'rinlarda Shartnoma deb yuritiladi) tuzish bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlovchi garov (depozit) yoki bank kafolatini qo'yishni va (yoki) eng yaxshi takliflar va tenderlarni tanlashda shartnoma majburiyatlarini bajarishni talab qilish.
- xarid qilish tartib-taomillarining barcha ishtirokchilariga tegishli bo'lgan takliflarni taqdim etish muddatlarini uzaytirish;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilariga o'z takliflarining amal qilish muddatini ma'lum muddatga uzaytirish to'g'risidagi taklif bilan murojaat qilish.

5.2. Kompaniya qonun hujjatlariga va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

5.3. Kompaniya majburiyatlari quyidagilardan iborat:

- davlat xaridlarini rejalashtirish;
- Amaldagi qonun-hujjatlariga muvofiq xarid qilish tartibi turini tanlash to'g'risida qaror qabul qilish;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat xaridlarini amalga oshirish;
- davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda maxsus axborot portaliga joylashtirish;
- qonun hujjatlariga muvofiq xaridlar tartib-taomili ishtirokchilariga ularning iltimosiga binoan tovarlar (ishlar, xizmatlar) va davlat xaridlarini o'tkazish tartib-qoidalariga oid tushuntirishlar berish;
- g'olib deb topilgan xarid tartib-taomillari ishtirokchilari bilan shartnomalar tuzish, shuningdek ularning bajarilishini ta'minlash;
- davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonida mansubligi to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish;

 O'ZBEKINVEST RESPUBLIKA NOMPANATSIYASI GK 18	«O'zbekinvest» EISK AJ davlat xaridlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom	RD-GK 18-04 uzb 22 varaqdan 6-chisi 28.03.2022
---	---	---

–moliyalashtirish manbalari va miqdorlari mavjudligi tasdiqlangandan keyingina bo'lajak davlat xaridlari to'g'risidagi e'lonlarni maxsus axborot portali orqali elektron davlat xaridlari tizimiga va ommaviy axborot vositalarida joylashtirish.

5.4. Kompaniya har chorakda vakolatli organga o'zining davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etadi.

5.5. Kompaniya zimmasida qonun hujjatlariga va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

5.6. Mazkur Nizomning yangilanishi va talablarining bajarilishi uchun javobgarlik Ma'muriy-xo'jalik xizmati Rahbari zimmasiga yuklanadi.

5.7. Kompaniya nomidan davlat xaridlarini amalga oshiruvchi mas'ul xodim maxsus axborot portalida joylashtirilgan ma'lumotlarning to'liqligi va haqqoniyligi, shuningdek ma'lumotlarni joylashtirish muddatlariga rioya etilishi uchun javobgardir.

6-BO'LIM. DAVLAT XARIDLARI, ULARNING TURLARI VA ULARNI AMALGA OSHIRISH TARTIBIGA TAYYORGARLIK.

6.1. Xarid qilish tartib-qoidalarini amalga oshirish turlari quyidagilardan iborat:

- elektron do'kon;
- kichik qiymatli xaridning soddalashtirilgan tartib-taomili;
- boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion;
- eng yaxshi takliflarni tanlash;
- tender;
- ikki bosqichli davlat xaridlari;
- to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha amalga oshiriladigan davlat xaridlari;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan ruxsat etilgan xaridlarning boshqa raqobatli turlari.

6.2. Xarid qilish jarayonlari elektron shaklda amalga oshirilishi mumkin.

6.3. Kelgusi xaridlarga tayyorgarlik quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- davlat xaridlarini rejalashtirish;
- xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish;
- shartnoma tuzish va bajarish;
- davlat xaridlari monitoringi.

7-BO'LIM. TOVARLAR (ISHLAR, XIZMATLAR) DAVLAT XARIDLARI VA SHARTNOMA SHARTLARINI TA'RIFLASH QOIDALARI.

7.1. Tovarlarini (ishlarni, xizmatlarni) davlat xaridlarining tavsifi ob'ektiv, funksional va umumiydir. Tavsifda tovarlarini (ishlarni, xizmatlarni) davlat xaridlarining tegishli texnik, sifat va zarurat tug'ilganda ekspluatatsion tavsiflari ko'rsatilishi kerak.

7.2. Davlat xaridlarining tavsifi tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) texnik xossalaridan kelib chiqqan holda, klassifikatsiyalarni, tasniflarni, rejalarini, chizmalarni, eskizlarni, talablarni hamda sinovlar va sinov usullari, qadoqlash, tamg'alash haqidagi yoki muvofiqlik sertifikat, shuningdek shartli belgilar va atamalar to'g'risidagi axborotni o'z ichiga olishi mumkin.

7.3. Tovarlarining (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi tavsifiga aniq tovar belgisiga yoki nomiga, patentga, konstruksiyaga yoki modelga, u mansub bo'lgan muayyan manbaga yoki ishlab chiqaruvchiga, eksklyuziv vakolatli huquqqa doir talablar yoki havolalar kiritilmasligi kerak, bundan

 O'ZBEKINVEST YUQURTTA KOMPAANIYASI GK 18	«O'zbekinvest» EISK AJ davlat xaridlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom	RD-GK 18-04 uzb 22 varaqdan 7-chisi 28.03.2022
--	---	---

tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi xususiyatlarini ta'riflashning boshqa yetarlicha aniq usuli mavjud bo'lmagan hollar mustasno va bunda davlat xaridining tavsifiga "yoki analogi" degan so'zlar kiritilishi kerak, bundan tovarlarning bir-biriga mos kelmasligi hollari mustasno.

7.4. Tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi tavsifida quyidagilar bo'lishi kerak:

- tovarlarning soni;
- bajarilishi (ko'rsatilishi) kerak bo'lgan ishlar (xizmatlar);
- tovarlar yetkazib berilishi lozim bo'lgan yoki ishlar bajarilishi, xizmatlar ko'rsatilishi kerak bo'lgan joy;
- tovarlarni yetkazib berish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatishning maqbul yoki talab etiladigan muddatlari, agar ular mavjud bo'lsa.

7.5. Xarid hujjatlarida sotib olingan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) Kompaniya tomonidan belgilangan talablarga muvofiqligini aniqlash imkonini beruvchi ko'rsatkichlar bo'lishi kerak. Shu bilan birga, bunday ko'rsatkichlarning maksimal va (yoki) minimal qiymatlari, shuningdek o'zgartirish mumkin bo'lmagan ko'rsatkichlarning qiymatlari ko'rsatiladi.

7.6. Zarur bo'lganda, Kompaniya tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) kafolat muddatiga va (yoki) ularning sifatiga beriladigan kafolatlar hajmiga, tovarga kafolat xizmati ko'rsatishga, tovaridan foydalanish xarajatlariga, tovarni montaj qilish va sozlashning majburiyligiga, tovaridan foydalanuvchi va unga xizmat ko'rsatuvchi shaxslarni o'qitishga doir talablar belgilanadi.

7.7. Mashinalar va asbob-uskunalarini yetkazib beruvchi ijrochi aniqlangan taqdirda Kompaniya xarid qilish hujjatlarida tovarning kafolat muddatiga va (yoki) uning sifatiga beriladigan kafolatlar hajmiga, tovarga kafolat xizmati ko'rsatishga, tovarga kafolat muddati mobaynida xizmat ko'rsatish xarajatlariga, shuningdek tovarni montaj qilish va sozlashga doir, agar bu tovarning texnik hujjatlarida nazarda tutilgan bo'lsa, talablarni belgilaydi. Yangi mashinalar va asbob-uskunalarini yetkazib beruvchi ijrochi aniqlangan taqdirda davlat buyurtmachisi xarid qilish hujjatlarida ushbu tovarni ishlab chiqaruvchining va (yoki) yetkazib beruvchining kafolatini taqdim etishga hamda bunday kafolatning amal qilish muddatiga nisbatan qo'shimcha ravishda talablar belgilaydi. Bunday kafolatni berish ushbu tovar bilan birga amalga oshiriladi.

7.8. Agar tovarlarning davlat xaridi tavsifida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, yetkazib berilayotgan tovar yangi bo'lishi kerak.

7.9. Xarid qilish hujjatlariga tovarni ishlab chiqaruvchiga, ishtirokchiga nisbatan davlat xaridlarining asosiy prinsiplariga zid bo'lgan, oshirib yuborilgan talablarni, shu jumladan ishtirokchining malakasiga nisbatan oshirib yuborilgan talabni (shu jumladan tovarning, ishning yoki xizmatning sifatiga, texnik xususiyatlariga doir talablar, tovarning funksional xususiyatlariga (iste'mol qilish xususiyatlariga) doir talablar shaklida) kiritishga yo'l qo'yilmaydi.

7.10. Xarid qilish tartib-taomili natijasi bo'yicha tuzilgan shartnomaga qo'shimcha kelishuv uning muhim shartlarini, xususan tovar (ish, xizmat), uning sifati va assortimentini o'zgartirish, miqdorini va bahosini oshirish hamda yetkazib berish muddatini uzaytirish tarzida o'zgartirmasa qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzilishi mumkin, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno. Shartnoma bo'yicha uning umumiy boshlang'ich summasining 10 foizidan oshmaydigan miqdordagi qo'shimcha ishlar va xizmatlarni amalga oshirish yuzasidan o'zgartirish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

8-BO'LIM. DAVLAT XARIDLARI JARAYONIDAGI CHEKLOVLAR

8.1. Davlat xaridlari jarayonida quyidagilarga yo'l qo'yilmaydi:

- agar ishtirokchining va (yoki) ushbu ishtirokchi vakolatli vakilining yaqin qarindoshlari ijrochini tanlash bo'yicha qaror qabul qilish huquqiga ega bo'lsa, shuningdek davlat buyurtmachisining yoki u tomonidan jalb etilgan ixtisoslashgan tashkilotning vakili bo'lsa, ishtirokchining davlat xaridlarida ishtirok etishiga;

 O'ZBEKINVEST EXPORT-KOMPAKTI GK 18	«O'zbekinvest» EISK AJ davlat xaridlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom	RD-GK 18-04 uzb 22 varaqdan 8-chisi 28.03.2022
---	---	---

- ishtirokchilarni kamsitishga, boshqa ishtirokchilarga zarar yetkazgan holda bir ishtirokchiga imtiyozlar yoki preferensiyalar taqdim etishga;
- manfaatlar to'qnashuviga;
- davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli bo'lmagan usullarini qonunga xilof ravishda tanlashga, davlat xaridlari subyektlariga ta'sir o'tkazishga, davlat xaridlarida ishtirokchilarning ishtirok etishi to'g'risidagi axborotni oshkor etishga, ularning sonini asossiz ravishda cheklashga yoki ularning malakasiga qo'yilgan talablarni oshirishga, raqobatga yo'l qo'ymaslikning, uni cheklashning yoki bartaraf etishning boshqa shakllariga;
- davlat xaridlari o'tkazilishi to'g'risidagi e'lonning matniga ishtirokchilar o'rtasida raqobatni cheklaydigan qonunga xilof talablarni kiritishga;
- narxlarni yoki ishtirokchilarni saralash natijalarini buzib ko'rsatish maqsadida ishtirokchilarning oldindan til biriktirishga;
- ishonchsiz yoki buzib ko'rsatilgan axborotni taqdim etishga yoki tarqatishga, shuningdek davlat xaridlari to'g'risidagi axborotdan foydalanishni asossiz ravishda cheklashga;
- davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatga asoslangan usullarini chetlab o'tish maqsadida davlat xaridlari hajmini qismlarga bo'lib tashlashga;
- ishtirokchilarning sun'iy tarzda pasaytirilgan narxlar bo'yicha takliflar berishiga, keyinchalik shartnomani imzolashni yoki uni tegishli tarzda bajarishni rad etishiga;
- davlat xaridi tarkibiga texnologik va funksional jihatdan o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) kiritishga;
- firibgarlik, soxtalashtirish va korrupsiyaning namoyon bo'lishiga;
- moliyalashtirish manbalari va miqdorlari mavjudligi to'g'risida tasdiqlarga ega bo'lmagan yoki ajratilgan mablag'lar hajmidan ortiq miqdordagi davlat xaridlarini amalga oshirishga.

9-BO'LIM. DAVLAT XARIDLARINI REJALASHTIRISH UCHUN HUJJATLARNI TAYYORLASH VA JOYLASH TARTIBI.

9.1 Davlat xaridlarini rejalashtirish davlat buyurtmachisi tomonidan amalga oshiriladi va xaridlarni tizimlashtirishdan, davlat xaridlarini rejalashtirish hamda budjet, shuningdek xo'jalik faoliyatini rejalashtirish o'rtasida o'zaro aloqani ta'minlashdan iborat bo'ladi.

9.2. Tarkibiy bo'linmalar rahbarlari har yili, har chorakda kelgusi davr uchun tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotib olish ehtiyojini rejalashtiradilar.

9.3. Tarkibiy bo'linmalar rahbarlari muddatning 10-kuniga qadar ma'muriy-xo'jalik xizmati rahbari/filial direktori nomiga keyingi davr uchun tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) talab qiladigan miqdori, texnik tavsiflari, boshlang'ich qiymati, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilinishini, xaridlar oylarini asoslab rejalashtirish bo'yicha rasmiy xat tuzadilar

9.4. Filialning ma'muriy-xo'jalik xizmati/xodimi rejalashtirilgan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilishning jamlama qaydnomasini (vedomost) tuzadi, filialning Bosh direktori yoki uning o'rinbosarlari / direktori tomonidan tasdiqlanadi va tovarlarni sotib olish uchun maxsus axborot portalining veb-saytida Kompaniyaning xaridlar jadvalida / filialida joylashtirish uchun mas'ul shaxsga beradi. Rejalashtirilgan xaridlar bo'yicha jamlama qaydnomalar filialning moliyaviy direktori/moliya masalalari bo'yicha direktor o'rinbosari bilan kelishilishi darkor.

9.5. Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) rejadan tashqari sotib olishni amalga oshirishda tarkibiy bo'linma rahbari Bosh direktor yoki uning o'rinbosarlari / filial direktori nomiga tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotib olish asoslari bilan bildirishnoma tuzadi.

 O'ZBEKINVEST HUNDOVAT KOMPANIYASI GK 18	«O'zbekinvest» EISK AJ davlat xaridlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom	RD-GK 18-04 uzb 22 varaqdan 9-chisi 28.03.2022
---	---	---

Hujjatda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) nomlari, talab qilinadigan miqdori, texnik tavsiflari, boshlang'ich qiymati, xarid oyi ko'rsatilgan bo'lishi kerak, bildirishnoma filialning moliya direktori/moliya masalalari bo'yicha direktor o'rinbosari, shuningdek tovarlarni sotib olish bo'yicha mas'ul shaxs bilan kelishilgan bo'lishi kerak.

Tasdiqlangandan so'ng bildirishnoma maxsus axborot portali veb-saytida Kompaniyaning xaridlar jadvaliga qo'shimcha kiritish uchun tovarlarni xarid qilish bo'yicha mas'ul shaxsga taqdim etiladi.

10-BO'LIM. DAVLAT HARIDLARINI ELEKTRON DO'KONDA AMALGA OSHIRISH UCHUN HUJJATLARNI TAYYORLASH VA JOYLASH TARTIBI.

10.1. Elektron do'konda quyidagi davlat xaridlari amalga oshirilishi mumkin:

- bitta shartnoma bo'yicha 25 000 BHMdan oshmaydigan tovarlar, kompaniyaning hududiy va ixtisoslashtirilgan bo'linmalari, 100 BHMdan ortiq bo'lgan tovarlarni sotib olayotganda, maxsus axborot portaliga e'lon joylashtirishdan oldin tovarlarni xarid qilishni Bosh kompaniyaning moliya bo'limi bilan kelishadilar.
- bir davlat buyurtmachisi uchun 100 BHM dan ortiq bo'lmagan miqdorda ishlar, xizmatlar.

10.2. Kompaniya tomonidan bir moliyaviy yil davomida Elektron do'kon orqali turdosh ishlar, xizmatlarni davlat xaridi 1000 BHMdan ko'p bo'lmagan miqdorda amalga oshirilishi mumkin.

10.3. Tarkibiy bo'linmalarning rahbarlari xaridlar rejasiga muvofiq ushbu Nizomning 9.4-bandiga muvofiq va 9.4-bandda ko'rsatilgan bildirishnoma tasdiqlangandan keyin ma'muriy-xo'jalik xizmati rahbari nomiga (hududiy filiallar - tovarlarni sotib olish uchun mas'ul shaxsga) texnik tavsiflari, boshlang'ich qiymati, zarur bo'lganda - litsenziya, ruxsat beruvchi xususiyatga ega boshqa hujjat yoki sertifikat mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlar, tovarni etkazib berish manzili, (bildirishnomadam jadvalning lot raqami aks ettiriladi) ko'rsatib xarid qilish uchun ariza tuzadilar.

10.4. *Tovarlarni xarid qilish bo'yicha mas'ul shaxs elektron do'konda ishtirokchilarning takliflarini o'rganib, kerakli tovar (ish, xizmat)ni tanlab oladi va tovar (ish, xizmat)ni tanlagandan so'ng narxni so'rash mexanizmidan foydalanadi.*

10.5. Ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan narx takliflarini taqqoslash elektron davlat xaridlari tizimi tomonidan avtomatik rejimda amalga oshiriladi.

10.6. Savdolar yakunlariga ko'ra shartnoma majburiyatlarini bajarish xarid qilish tartib-taomili ishtirokchisi tomonidan rad etilgan taqdirda davlat xaridlarining elektron tizimi g'olibdan keyingi eng past narxni taklif etgan boshqa ishtirokchini g'olib deb belgilaydi, bunda mazkur ishtirokchiga g'olib tomonidan taklif etilgan narx asosida shartnoma tuzish taklif qilinadi.

Agar g'olibdan keyingi eng past narxni taklif qilgan ishtirokchi shartnoma tuzishni rad etsa, davlat buyurtmachisi xaridni ushbu Qonun talablariga muvofiq kichik qiymatli xaridning soddalashtirilgan tartib-taomili (684-sonli Qonunning 51¹-moddasida belgilangan mezonlar doirasida) yoki boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion yoxud eng yaxshi takliflarni tanlash orqali amalga oshirishi mumkin.

10.7. 2(ikki) ish kunidan keyin tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha amalga oshirilgan bitimlar natijalari bo'yicha tovar sotib olish uchun mas'ul shaxs Bosh direktori yoki uning o'rinbosarlari/filialning direktori nomiga maxsus axborot portalida bayonnoma tayyorlaydi.

10.8. Bildirishnoma tasdiqlangan va ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng, tovarlarni sotib olish uchun mas'ul shaxs bildirishnomaning asl nusxasini va shartnomaning asl nusxasini buxgalteriya bo'limiga topshiradi.

10.9. Keyingi ishlar 17-bo'limga muvofiq amalga oshiriladi.

10.10. Tovarlarni sotib olish uchun mas'ul shaxs, ishtirokchilarning takliflarini tanlashdan oldin, bir xil turdagi ishlar, xizmatlarning narxini monitoring va nazorat qiladi va agar ilgari tuzilgan

 O'ZBEKINVEST TOSHIQTA KOMPANIYASI GK 18	«O'zbekinvest» EISK AJ davlat xaridlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom	RD-GK 18-04 uzb 22 varaqdan 10-chisi 28.03.2022
---	---	--

shartnomalar bo'yicha moliyaviy xarajatlar umumiy qiymati bir moliyaviy yil ichida 1000 BHM dan oshsa, tovarlar auksioning narxini pasaytirish yoki eng yaxshi takliflarni tanlash bo'limida sotib olinadi.

11-BO'LIM. KICHIK QIYMATLI XARIDNING SODDALASHTIRILGAN TARTIB-TAOMILI

11.1. Summasi bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining (**BHM 50**) ellik baravari miqdoridan oshmaydigan (byudjet buyurtmachilari uchun bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravari miqdoridan oshmaydigan) davlat xaridlari xarid komissiyasining ishtirokisiz o'tkazilishi mumkin, biroq bir moliya yilida bir korporativ buyurtmachi uchun bazaviy hisoblash miqdorining (**BHM 1000**) bir ming baravari miqdoridan oshmasligi va bir moliya yilida bir byudjet buyurtmachisi uchun bazaviy hisoblash miqdorining besh yuz baravari miqdoridan oshmasligi kerak.

Bunda g'olib davlat xaridlari o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon joylashtirilmagan holda, ochiq axborot manbalaridan olingan narxlarni solishtirish yo'li bilan yoki tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) kamida uchta potensial yetkazib beruvchilaridan narxlarni so'rash yo'li bilan davlat buyurtmachisi tomonidan aniqlanadi.

11.2. 9.4-bandga muvofiq xaridlar rejasiga ko'ra yoki mazkur Nizomning 9.5-bandida ko'rsatilgan bildirishnoma tasdiqlangandan keyin tegishli bo'linma rahbarlari (filial direktori) tovarlar (ishlar, xizmatlar) ning kamida uchta yetkazib beruvchisiga so'rovlar yuboradi va tijorat takliflarini olgandan so'ng xarid komissiyasi raisi nomiga raqobat varaqasi (FK - 62) rasmiylashtirilgan holda va xarid komissiyasini ko'rib chiqish uchun yetkazib beruvchini tanlash bo'yicha tegishli asoslar bilan bildirishnoma tayyorlanadi.

11.3. Xarid komissiyasining navbatdagi yig'ilishida (RD-58) olingan takliflar uch kun ichida ko'rib chiqiladi, narx, sifat, muddatlar bo'yicha baholash mezonlari asosida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) etkazib beruvchini belgilaydi va xarid komissiyasi bayonnomasini rasmiylashtiradi. Komissiya raisining qarori bo'yicha komissiya Majlisi sirtidan, shu jumladan video-konferensiya aloqasidan foydalangan holda o'tkazilishi mumkin.

Xarid komissiyasi kotibi filialning Bosh direktori/direktori yoki uning o'rinbosarlari nomiga tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib berish bo'yicha tanlangan ijrochi bilan shartnoma tuzish to'g'risidagi xarid komissiyasi bayonnomasidan ko'chirma bilan bildirishnomani tayyorlaydi.

11.4. 11.3-bandi bo'yicha ijobiy qaror qabul qilinganda keyingi ishlar 19-bo'limga muvofiq amalga oshiriladi.

11.5. Rasmiylashtirilgan hujjatlar, tuzilgan shartnomalar va ularga qo'shimcha bitimlar to'g'risidagi ma'lumotlar mas'ul shaxs tomonidan maxsus axborot portalida ular tuzilgan kundan e'tiboran besh ish kunidan kechiktirmay joylashtiriladi.

Agar tuzilgan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar to'g'risidagi ma'lumotlar maxsus axborot portalida joylashtirilmagan bo'lsa, unda ushbu shartnomalar bo'yicha to'lov amalga oshirilmaydi.

12-BO'LIM. BOSHLANG'ICH NARXNI PASAYTIRISH UCHUN O'TKAZILADIGAN AUKSION HAMDA HUJJATLARNI TAYYORLASH VA JOYLASH TARTIBI.

12.1 Boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion (bundan buyon matnda auksion deb yuritiladi) vositasidagi davlat xaridi quyidagi shartlar bir vaqtning o'zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

- tovarning standart xususiyatlarga ega bo'lishi;
- tovarning texnik, ekspluatatsiya qilinish xususiyatlarini va boshqa xususiyatlarini baholash hamda taqqoslash zarurati mavjud emasligi;

 O'ZBEKINVEST SAG'IRTA KOMPAANIYASI GK 18	«O'zbekinvest» EISK AJ davlat xaridlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom	RD-GK 18-04 uzb 22 varaqdan 11-chisi 28.03.2022
---	---	--

– tovarning qiymati bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravarigacha bo'lgan miqdorini tashkil etishi kerak.

12.2. Xizmatlar va ishlarning davlat xaridi auksion obyekti bo'la olmaydi.

12.3. Tovarni e'londa bayon etilgan shartlar asosida eng past narx bo'yicha yetkazib berishni taklif qilgan ishtirokchi auksion g'olibi bo'ladi. Bunda mazkur norma belgilangan sifat standartlariga muvofiq bo'lgan tovarlarni yetkazib berish talabini bekor qilmaydi.

12.4. Auksion faqat elektron shaklda o'tkaziladi.

12.5. Tarkibiy bo'linmalarining rahbarlari xaridlar rejasiga muvofiq ushbu Nizomning 9.4-bandiga muvofiq va 9.5-bandda ko'rsatilgan bildirishnoma tasdiqlangandan keyin ma'muriy-xo'jalik xizmati rahbari nomiga (hududiy filiallar - tovarlarni sotib olish uchun mas'ul shaxsga) texnik tavsiflari, boshlang'ich qiymati, zarur bo'lganda - litsenziya, ruxsat beruvchi xususiyatga ega boshqa hujjat yoki sertifikat mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlar, tovarni etkazib berish manzili, (bildirishnomadam jadvalning lot raqami aks ettiriladi) ko'rsatib xarid qilish uchun ariza tuzadilar.

Kompaniyaning hududiy va ixtisoslashtirilgan bo'linmalari maxsus axborot portaliga e'lon joylashtirishdan oldin qiymati 150 BHM dan ortiq bo'lgan tovarlarni xarid qilishni Bosh kompaniyaning Moliya boshqarmasi bilan kelishilgan holda amalga oshiradilar.

12.6. Ariza quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- auksion predmetining boshlang'ich narxi;
- auksion predmeti va uning xususiyati (auksion predmetining tasnifi);
- tovarning miqdori;
- tovarlarni yetkazib berish muddatlari va shartlari;
- tovarlar yetkazib beriladigan joy (manzil);
- tovarning amaldagi standart talabiga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjat mavjudligi haqidagi talab;
- tovar majburiy sertifikatlashtirilishi talab etiladigan hollarda, muvofiqlik sertifikati va sanitariya-epidemiologik xulosa mavjudligi to'g'risidagi talab;
- zarur bo'lganda, litsenziya, ruxsat etish xususiyatiga ega boshqa hujjat yoxud faoliyatni boshlagani haqidagi xabarnoma mavjudligi to'g'risidagi talab;
- tovarning o'ziga xos xususiy parametrlarini ifodalovchi shartlar.

12.7. Arizani olgandan so'ng, tovarlarni sotib olish uchun mas'ul shaxs HKKPning ikkilamchi depozit hisobvarag'ida mablag'lar mavjudligini nazorat qiladi, agar kerak bo'lsa, maxsus axborot portalining HKKP-dagi hisobni to'ldirish to'g'risida bildirishnoma tuzadi. Kompaniyaning (filialning) buxgalteriya bo'limi bildirishnoma asosida e'lonni joylashtirishdan oldin o'zining shaxsiy hisob varaqlariga avans to'lovlarini HKKPning ikkilamchi depozit hisob varag'i doirasida amalga oshirishi shart.

12.8. Tuzilmaviy bo'linmalarining arizasi (yozma va elektron shaklda) asosida tovarlarni xarid qilish bo'yicha mas'ul shaxs uni amalga oshirishdan kamida 5 (besh) kun oldin narxni pasaytirish auksion bo'limiga e'lonni joylashtiradi.

Auksion o'tkazilishi to'g'risidagi e'lonning va davlat buyurtmachisi buyurtmanomasining matniga auksion predmetiga taalluqli bo'lmagan va ishtirokchilar o'rtasida raqobatni cheklaydigan talablarni kiritish taqiqlanadi.

12.9. Auksion savdosini o'tkazish, har bir lot bo'yicha auksion savdosiga depozitga qo'yilgan ta'minot summasiga muvofiq qo'yish, auksion g'oliblarini aniqlash, bitimni rasmiylashtirish va shartnomani shakllantirish maxsus axborot portalini tomonidan avtomatik rejimda amalga oshiriladi.

12.10. Auksion tugaydigan vaqt kelganda davlat xaridlarining elektron tizimi auksion o'tkazilgan vaqt davomida berilgan takliflar orasida eng past narxni taklif qilgan taklifni avtomatik ravishda aniqlab oladi. Eng past narx ko'rsatilgan taklifni bergan ishtirokchi auksion g'olibi sifatida davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan saralab olinadi. Ijrochining nomi davlat xaridlarining

 O'ZBEKINVEST SAG'LOVTA KOMPAANIYASI GK 18	«O'zbekinvest» EISK AJ davlat xaridlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom	RD-GK 18-04 uzb 22 varaqdan 12-chisi 28.03.2022
---	---	--

elektron tizimida aks ettirilib, ushbu tizim tuzilgan bitimni avtomatik ravishda qayd etadi va davlat buyurtmachisining buyurtmanomasida bayon etilgan shartlarga muvofiq shartnomani shakllantiradi.

12.11. Auktsion yakunlariga ko'ra, shartnoma majburiyatlarini bajarish xarid qilish tartib-taomilining ishtirokchisi tomonidan rad etilgan taqdirda, davlat xaridlarining elektron tizimi g'olibdan keyingi eng past narxni taklif qilgan ishtirokchini g'olib deb belgilaydi, bunda mazkur ishtirokchiga g'olib tomonidan taklif etilgan narx asosida shartnoma tuzish taklif qilinadi.

Agar g'olibdan keyingi eng past narxni taklif qilgan ishtirokchi shartnoma tuzishni rad etsa, davlat buyurtmachisi xaridni ushbu Qonun talablariga muvofiq elektron do'kon vositasida (ushbu Qonunning 49-moddasida belgilangan mezonlar doirasida) yoki kichik qiymatli xaridning soddalashtirilgan tartib-taomili (684-sonli Qonunning 51¹-moddasida belgilangan mezonlar doirasida) yoxud eng yaxshi takliflarni tanlash orqali amalga oshirishi mumkin.

12.12. Auktsion o'tkazish natijalariga ko'ra tovarlarni xarid qilish bo'yicha mas'ul shaxs filial Bosh direktori/direktori yoki uning o'rinbosarlari nomiga o'tkazilgan savdolar natijalari to'g'risida bildirishnoma xat tayyorlaydi.

12.13. Bayonnoma tasdiqlangandan so'ng, tovarlarni sotib olish uchun mas'ul shaxs bayonnoma va shartnomaning bir nusxasini tarkibiy bo'linmaga sotib olish tashabbuskoriga beradi, shuningdek, hujjatlarning asl paketini buxgalteriyaga ro'yxatdan o'tkazish va avans to'lovlarini amalga oshirish uchun topshiradi.

12.14. Keyingi ishlar 18-bo'limga muvofiq amalga oshiriladi.

12.5. Agar kim oshdi savdosida bitta ishtirokchi qatnashgan bo'lsa yoki hech kim ishtirok etmagan bo'lsa, kim oshdi savdosi o'tkazilmagan deb hisoblanadi va g'olib aniqlanmaydi. Kompaniya auktsionni uch ish kuniga uzaytirishi yoki xaridni elektron do'kon orqali yoki eng yaxshi takliflarni tanlash orqali amalga oshirishi mumkin.

Auktsion muddatini uzaytirish Kompaniya tomonidan avvalgi kim oshdi savdosi tugagan kundan boshlab uch ish kuni ichida amalga oshiriladi.

13-BO'LIM. ENG YAXSHI TAKLIF TANLASHDA DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHIRISH UCHUN HUJJATLARNI TAYYORLASH, JOYLASHTIRISH VA RASMIYLASHTIRISH TARTIBI.

13.1. Eng yaxshi takliflarni tanlash (bundan buyon matnda tanlash deb yuritiladi) vositasidagi davlat xaridi quyidagi shartlar bir vaqtning o'zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

g'olibni aniqlash mezonlari tovar (ish, xizmat) davlat xaridining nafaqat pul ifodasiga, balki miqdoriy va sifat bahosiga ham ega bo'ladi;

tovarning (ishning, xizmatning) qiymati bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravarigacha (budjet buyurtmachilari uchun olti ming baravarigacha) bo'lgan miqdorni tashkil etadi.

13.2. Tanlov yo'li bilan davlat xaridlarini amalga oshirish uchun kamida besh nafar a'zodan (RD – 58) iborat xarid komissiyasi tuziladi.

13.3. Shartnomani bajarish uchun eng yaxshi shartlar xarid komissiyasi tomonidan ishtirokchilar takliflarini baholashning e'lon qilingan mezonlari asosida aniqlanadi.

13.4. Ishtirokchilarning takliflarini baholash 13.1-bandda ko'rsatilgan mezonlarga muvofiq amalga oshiriladi. Tanlov majburiy ravishda elektron shaklda amalga oshiriladi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

13.5. Kompaniyaning hududiy va ixtisoslashtirilgan bo'linmalari maxsus axborot portaliga e'lon joylashtirishdan oldin qiymati 100 BHM dan ortiq bo'lgan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilish Bosh kompaniyaning Moliya boshqarmasi bilan kelishiladi.

 O'ZBEKINVEST SHARQIYTA HIMPIONATSI GK 18	«O'zbekinvest» EISK AJ davlat xaridlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom	RD-GK 18-04 uzb 22 varaqdan 13-chisi 28.03.2022
---	---	--

13.6. Tarkibiy bo'linmalar rahbarlari / hududiy filiallar, ixtisoslashtirilgan korxonalar direktorlari tanlov e'lon qilinishidan oldin Tanlov hujjatlarini tayyorlaydilar va xarid komissiyasi bilan kelishishadi (RD-58).

13.7. Tanlov hujjatlarida quyidagilar bo'lishi kerak:

- tanlov shakli;
- tovar (ish, xizmatlar)ning batafsil tavsifi va boshlang'ich bahosi;
- tanlov joyining manzili;
- ishtirokchilarga qo'yiladigan talablar;
- bir yoki bir nechta mansabdor shaxslarning yoki ishtirokchilar bilan muloqot qilish uchun aloqador shaxslar sifatida belgilangan kompaniyaning boshqa xodimlarining familiyasi, ismi, otasining ismi, lavozimi va manzili;
- ishtirokchilar tomonidan takliflar berish muddati tugash sanasi va vaqti;
- taklifni rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar.

Tanlov to'g'risidagi e'lon va (yoki) tanlovda ishtirok etishga taklifnomada qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa ma'lumotlar ham bo'lishi mumkin.

13.8. Tanlov hujjatlariga uning ajralmas qismi bo'lgan shartnoma loyihasi ilova qilinadi.

13.9. Tovarlarni xarid qilish bo'yicha mas'ul shaxs tanlov ishtirokchilarining takliflarini qabul qilish muddati tugashidan kamida 5 (besh) kun oldin maxsus axborot portali orqali elektron davlat xaridlari tizimiga tanlov to'g'risida e'lon joylashtiradi. Shu bilan birga, ushbu e'lon Kompaniyaning rasmiy veb-saytida (www.uzbekinvest.uz), shuningdek, boshqa ommaviy axborot vositalarida joylashtirilishi mumkin.

Xarid qilinayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning o'ziga xos xususiyatlari yoki xususiyatlariga qarab, Kompaniya tanlov to'g'risida e'lonni uzoqroq muddatga berishga haqli.

13.10. Tanlovga takliflarni qabul qilish maxsus axborot portalidagi e'londa ko'rsatilgan muddatdan boshlab tugatiladi.

13.11. Davlat buyurtmachisi xarid komissiyasi bilan kelishilgan holda tenderda ishtirok etish uchun takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida 1 (bir) ish kuni oldin tender bo'yicha xarid qilish hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli. Bunda ushbu tenderda takliflar berish tugaydigan muddat kamida 3 (uch) ish kuniga uzaytiriladi. Shu bilan bir vaqtda, agar

e'londa ko'rsatilgan axborot o'zgartirilgan bo'lsa, tender o'tkazish to'g'risidagi e'longa o'zgartishlar kiritiladi. Tovarning (ishning, xizmatning) nomini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

13.12. Agar takliflarni taqdim etishning oxirgi muddati tugashi vaqtida xarid komissiyasiga tender ishtirokchilaridan tender hujjatlarida ko'rsatilgan talablarga javob beradigan kamida ikkita taklif kelib tushgan bo'lsa, tender o'tkazilgan deb topiladi.

13.13. Agar tanlovda qatnashish uchun takliflar berishning oxirgi muddati tugashiga qadar faqat bitta taklif kiritilgan bo'lsa yoki bitta ham taklif kiritilmagan bo'lsa, tanlov o'tkazilmagan deb topiladi. Bunday holda, Kompaniya elektron do'kon yoki auktsion orqali yangi tanlov yoki xarid o'tkazishi mumkin.

13.14. Tender ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqish va baholash muddati takliflarni taqdim etishning oxirgi muddati tugagan kundan boshlab 10 kundan oshmasligi kerak.

13.15. E'londa tanlov o'tkazish vaqti sifatida ko'rsatilgan vaqtda takliflarni baholash bo'yicha xarid komissiyasi tanlov ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan takliflar solingan konvertlarni ochadi. Qabul qilingan takliflar xarid komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi. Tanlov uchun xarid hujjatlari talablariga javob bermaydigan takliflar chiqarib tashlanadi va xarid komissiyasi tomonidan baholanmaydi. Tanlov jarayonida ishtirokchilarning narxi boshlang'ich bahosidan yuqori bo'lgan takliflari chiqarib tashlanadi va xarid komissiyasi tomonidan baholanmaydi.

 O'ZBEKINVEST VAQFIYA KOMPANIYASI GK 18	«O'zbekinvest» EISK AJ davlat xaridlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom	RD-GK 18-04 uzb 22 varaqdan 14-chisi 28.03.2022
--	---	--

13.16. E'londa tanlash o'tkaziladigan vaqt sifatida ko'rsatilgan vaqtda davlat xaridlarining elektron tizimi avtomatik ravishda ishtirokchilar tomonidan joylashtirilgan va ularning tanlash takliflarini tashkil etadigan elektron hujjatlarni ko'rish imkoniyatini beradi. Davlat xaridlarining elektron tizimi ishtirokchi taklif etgan narxning boshlang'ich narxga muvofiqligini va elektron maydonlarning to'ldirilganligini tekshiradi. Agar ishtirokchi tomonidan taklif etilgan narx boshlang'ich narxdan yuqori bo'lsa, shuningdek biriktirilishi zarur bo'lgan hujjatlarni to'ldirish va joylashtirish uchun majburiy bo'lgan bo'sh maydonlar mavjud bo'lsa, davlat xaridlarining elektron tizimi aniq sababni ko'rsatgan holda, ishtirokchining taklifini rad etadi. Biriktirilgan hujjatlardagi ma'lumotlarning tanlash ishtirokchisining taklifida ko'rsatilgan ma'lumotlarga muvofiqligini tekshirish xarid komissiyasining mas'ul kotibi tomonidan amalga oshiriladi.

13.17. Xarid komissiyasining bayonnomasi tasdiqlangandan so'ng, tovarlarni xarid qilish bo'yicha mas'ul shaxs Bosh direktor / filial direktori nomiga komissiya raisi va kotibi tomonidan imzolangan bayonnoma tuzadi.

13.18. Tanlov natijalariga ko'ra va 13.17-bandda ko'rsatilgan bayonnoma tasdiqlangandan so'ng, tanlab olingan tanlov ishtirokchisi bilan, uning tomonidan taqdim etilgan tanlov hujjatlari va taklifida ko'rsatilgan shartlar asosida shartnoma tuziladi.

13.19. Rasmiylashtirilgan hujjatlar, tuzilgan shartnomalar va ularga qo'shimcha bitimlar to'g'risidagi ma'lumotlar mas'ul shaxs tomonidan maxsus axborot portalida ular rasmiylashtirilgan yoki tuzilgan sanadan e'tiboran besh ish kunidan kechiktirmay joylashtiriladi.

13.20. Keyingi ishlar 18-bo'limga muvofiq amalga oshiriladi.

14-BO'LIM. DAVLAT XARIDLARINI TENDER ORQALI O'TKAZISH UCHUN HUJJATLARNI TAYYORLASH, JOYLASH VA RO'YXATDAN O'TKAZISH TARTIBI.

14.1. Tender orqali davlat xaridlari quyidagi shartlar bir vaqtda bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

- g'olibni aniqlash mezonlari nafaqat pul qiymatiga, balki mahsulotning (ishning, xizmatning) miqdoriy va sifat jihatidan baholanishiga;
- tovarlar (ishlar, xizmatlar) qiymati bir shartnoma bo'yicha 25 000 BHM dan ortiq.

Tender elektron shaklda o'tkazilishi majburiydir, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Ushbu turdagi xaridlar faqat Bosh kompaniya tomonidan amalga oshiriladi.

14.2. Davlat xaridlarini tender orqali amalga oshirish uchun kamida 7 (etti) a'zodan iborat xarid komissiyasi tuziladi.

Shartnomani bajarish uchun eng yaxshi shartlar tanlov ishtirokchilarining takliflarini baholashning e'lon qilingan mezonlari asosida xarid komissiyasi tomonidan belgilanadi.

14.3. Tarkibiy bo'linmalarining rahbarlari, filial direktori, ShK tender bo'yicha xarid hujjatlarini e'lonni joylashtirishdan oldin rasmiylashtiradilar.

14.4. Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'londa ko'rsatilgan axborot;
- shartnoma bahosini va ijrochilar bilan hisob-kitoblarni shakllantirish uchun foydalaniladigan valyuta hamda to'lov tartibi haqidagi axborot;
- tenderda ishtirok etish uchun taklifni davlat tilida va, zaruriyatga qarab, boshqa tillarda tayyorlash majburiyigi to'g'risidagi talab;
- tender ishtirokchisi taklifining texnik va narxga oid qismi, ularni baholash tartibi haqidagi axborot;

 O'ZBEKINVEST SHARHAT KOMPANIYASI GK 18	«O'zbekinvest» EISK AJ davlat xaridlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom	RD-GK 18-04 uzb 22 varaqdan 15-chisi 28.03.2022
---	---	--

- tender ishtirokchilariga tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari qoidalariga doir tushuntirishlarni taqdim etish tartibi, taqdim etish muddati boshlanadigan va tugaydigan sana;
- texnik topshiriq;
- ushbu Qonunga muvofiq tender ishtirokchilarining takliflarini baholash mezonlari va ko'rib chiqish tartibi;
- tender ishtirokchilari tomonidan korrupsiya ko'rinishlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha arizani taqdim etish majburiyligi haqidagi talab.

14.5. Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlariga uning ajralmas qismi bo'lgan shartnoma loyihasi ilova qilinadi.

Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari qonunchilikda belgilangan tartibda ekspertiza uchun Kompleks ekspertiza qilish markaziga kiritiladi.

Davlat buyurtmachisi tuzilgan shartnomalar, import kontraktlari va ularga qo'shimcha kelishuvlarning xarid qilish hujjatlariga muvofiqligi va haqiqiyliги uchun javobgar bo'ladi.

14.6. Tender o'tkazish to'g'risidagi e'lon Kompleks ekspertiza markazining tender o'tkazish bo'yicha xarid hujjatlari bo'yicha ijobiy xulosasi olingandan keyingina joylashtiriladi.

14.7. Tarkibiy bo'linmalar rahbarlari (filial direktori, ShK) ushbu Nizomning 9.4-bandagi xaridlar rejasiga muvofiq yoki 9.5-bandda ko'rsatilgan bayonnoma tasdiqlangandan keyin, 13.4-bandi amalga oshirilgandan so'ng, ma'muriy-xo'jalik xizmati rahbari nomiga tender hujjatlari, texnik topshiriq va tuziladigan shartnoma (yozma va elektron shaklda) namunasi ilova qilingan holda tanlov o'tkazish to'g'risidagi e'lonni xarid.uz maxsus axborot portalida va Kompaniyaning www.uzbekinvest.uz veb-saytida joylashtirish uchun ariza (hududiy bo'limlar - Bosh direktor nomiga xizmat xati) tuzadilar.

14.8. Tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon tender ishtirokchilaridan takliflarni qabul qilish muddati tugaydigan sanadan kamida o'n ikki ish kuni va ko'pi bilan o'ttiz ish kuni oldin maxsus axborot portalini orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga davlat buyurtmachisi tomonidan joylashtiriladi.

Tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon quyidagi axborotni o'z ichiga olishi kerak:

- tenderni o'tkazish shakli;
- tovarning (ishning, xizmatning) batafsil tavsifi va boshlang'ich narxi;
- tender o'tkaziladigan joyning manzili;
- tender ishtirokchilariga qo'yiladigan talablar;
- davlat buyurtmachisining ishtirokchilar bilan bog'lanish uchun aloqa bog'lovchi shaxslar sifatida belgilangan bir yoki bir nechta mansabdor shaxslarining yoki boshqa xodimlarining familiyasi, ismi, sharifi, lavozimi va manzili;
- takliflar berish muddati tugaydigan sana va vaqt;
- tender taklifini rasmiylashtirishga doir talablar.

Tender o'tkazish to'g'risidagi e'lon qonunchilikka zid bo'lmagan boshqa axborotni ham o'z ichiga olishi mumkin.

14.9. Tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon tovar xarid qilish uchun mas'ul shaxs tomonidan tender ishtirokchilaridan takliflarni qabul qilish muddati tugaydigan sanadan kamida o'n ikki ish kuni va ko'pi bilan o'ttiz ish kuni oldin maxsus axborot portalini orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtiriladi.

Shu bilan birga, ushbu e'lon Kompaniyaning rasmiy veb-saytida (www.uzbekinvest.uz), shuningdek, boshqa ommaviy axborot vositalarida joylashtirilishi mumkin.

14.10. Tenderga takliflarni qabul qilish maxsus axborot portalidagi e'londa ko'rsatilgan muddatdan boshlab tugatiladi.

 O'ZBEKINVEST DAVLAT XARIDLARI AGENTLIGI	«O'zbekinvest» EISK AJ davlat xaridlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom	RD-GK 18-04 uzb
GK 18		22 varaqdan 16-chisi 28.03.2022

14.11. Agar takliflarni taqdim etishning oxirgi muddatida xarid komissiyasiga tender ishtirokchilaridan tender hujjatlarida ko'rsatilgan talablarga javob beradigan kamida ikkita taklif kelib tushgan bo'lsa, tender o'tkazilgan deb hisoblanadi.

14.12. Agar tenderda bir ishtirokchi qatnashgan yoki hech kim qatnashmagan bo'lsa, tender o'tkazilmagan deb topiladi. Bunday holda, Kompaniya bir xil shartlarda va mahsulot (ish, xizmat) uchun bir xil mezonlar va talablar bilan xarid qilish jarayonini qayta o'tkazishi shart. Agar mahsulot (ish, xizmat) uchun shartlarni, baholash mezonlarini va talablarni o'zgartirish zarur bo'lsa, xarid komissiyasi sabablarini ko'rsatgan holda tegishli qaror qabul qiladi.

Tender ishtirokchisi taqdim etilgan taklifni bunday takliflarni taqdim etishning oxirgi muddati tugagunga qadar qaytarib olish yoki o'zgartirish huquqiga ega.

14.13. Tender ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqish va baholash muddati takliflar berish tugagan paytdan e'tiboran 45 (qirq besh) ish kunidan oshishi mumkin emas.

14.14. E'londa tender o'tkaziladigan vaqt sifatida ko'rsatilgan vaqtda davlat xaridlarining elektron tizimi avtomatik ravishda ishtirokchilar tomonidan joylashtirilgan va ularning tender takliflarini tashkil etadigan elektron hujjatlarni ko'rish imkoniyatini beradi. Davlat xaridlarining elektron tizimi ishtirokchi taklif etgan narxning boshlang'ich narxga muvofiqligini va elektron maydonlarning to'ldirilganligini tekshiradi. Agar ishtirokchi tomonidan taklif etilgan narx boshlang'ich narxdan yuqori bo'lsa, shuningdek biriktirilishi zarur bo'lgan hujjatlarni to'ldirish va joylashtirish uchun majburiy bo'lgan bo'sh maydonlar mavjud bo'lsa, davlat xaridlarining elektron tizimi aniq sababni ko'rsatgan holda ishtirokchining tender taklifini rad etadi. Biriktirilgan hujjatlardagi ma'lumotlarning ishtirokchining tender taklifida ko'rsatilgan ma'lumotlarga muvofiqligini tekshirish xarid komissiyasining mas'ul kotibi tomonidan amalga oshiriladi.

14.15. Birinchi bosqichda tender ishtirokchisi taklifining texnik qismini baholash amalga oshiriladi. Xarid komissiyasining tender taklifining texnik qismini baholash bo'yicha qarori bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi, bayonnomada tenderning birinchi bosqichini baholash yakunlari ko'rsatiladi.

Agar takliflarni ko'rib chiqish natijalariga ko'ra xarid komissiyasi barcha takliflarni rad etgan bo'lsa yoki faqat bitta taklif tender hujjatlari talablariga javob bersa, tender o'tkazilmagan deb e'tirof etiladi.

14.16. Tenderning ikkinchi bosqichiga tenderning birinchi bosqichi g'oliblari yo'l qo'yiladi. qo'yiladi.

14.17. Tenderning ikkinchi bosqichi tenderning birinchi bosqichidan o'tgan kamida ikki nafar ishtirokchining takliflari mavjud bo'lganda o'tkaziladi.

Tender taklifining miqdoriy ko'rsatkichlarini, shu jumladan narx qismini baholash davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan avtomatik ravishda amalga oshiriladi.

14.18. Takliflarni ko'rib chiqish va baholash natijalari takliflarni ko'rib chiqish hamda baholash bayonnomasida qayd etiladi. Xarid komissiyasi a'zolari majlisning davlat xaridlarining elektron tizimida avtomatik ravishda shakllantiriladigan elektron bayonnomasini elektron raqamli imzodan foydalangan holda tasdiqlaydi. Elektron bayonnoma davlat xaridlarining elektron tizimida avtomatik ravishda e'lon qilinadi.

Tenderning istalgan ishtirokchisi takliflarni ko'rib chiqish va baholash bayonnomasi e'lon qilinganidan keyin davlat buyurtmachisiga tender natijalari bo'yicha tushuntirishlarni taqdim etish to'g'risida so'rov yuborishga haqli. Davlat buyurtmachisi bunday so'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran uch ish kuni ichida tender ishtirokchisiga tegishli tushuntirishlarni taqdim etadi.

14.19. Kompaniya taqdim etilgan takliflarni qabul qilish tugaguniga qadar muhokama qilishga haqli emas.

14.20. Tender natijalari bo'yicha shartnoma tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida va shartnoma tuzilayotgan tender ishtirokchisi tomonidan berilgan taklifda ko'rsatilgan shartlar asosida davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan avtomatik tarzda shakllantiriladi.

 O'ZBEKINVEST QUROLTA KO'PMIYATLARI GK 18	«O'zbekinvest» EISK AJ davlat xaridlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom	RD-GK 18-04 uzb 22 varaqdan 17-chisi 28.03.2022
---	---	--

14.21. Tender yakunlari bo'yicha bayonnoma tasdiqlangandan so'ng, shartnoma tuzilajak tender ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan tender hujjatlarida va taklifda ko'rsatilgan shartlar bo'yicha shartnoma tuziladi.

14.22. G'olib shartnoma tuzishdan bosh tortgan taqdirda unga zakalat summasi qaytarib berilmaydi. Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlangan bo'lsa, shartnoma tuzish va unga doir majburiyatlarni bajarish huquqi zaxiradagi g'olibga o'tadi. Bunda zaxiradagi g'olib g'olib tomonidan taklif etilgan narxda (bundan zaxiradagi g'olib taklif etgan narx g'olib tomonidan taklif etilgan narxdan past bo'lgan hollar mustasno) shartnoma tuzadi yoki shartnoma tuzishdan bosh tortishi mumkin. Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlanmagan bo'lsa yoki zaxiradagi g'olib shartnoma tuzishdan bosh tortsa, davlat buyurtmachisi yangi tender o'tkazadi.

14.23. Tender natijalari bo'yicha tuzilgan shartnoma to'g'risidagi axborot davlat buyurtmachisi tomonidan maxsus axborot portaliga u tuzilgan sanadan boshlab besh ish kunidan kechiktirmay joylashtiriladi.

14.24. Keyingi ishlar 18-bo'limga muvofiq amalga oshiriladi.

15-BO'LIM. TO'G'RIDAN-TOG'RI SHARTNOMALARNI AMALGA OSHIRISH UCHUN HUJJATLARNI RASMIYLASHTIRISH TARTIBI.

15.1. Ushbu bo'lim to'g'ridan-to'g'ri shartnomalarni bajarish uchun hujjatlarni tayyorlash tartibini belgilaydi.

15.2. To'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha davlat xaridlari quyidagi hollarda amalga oshirilishi mumkin:

- Yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritilgan yagona yetkazib beruvchi bilan davlat xaridini amalga oshirish uchun ruxsat etilgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha amalga oshiriladigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi;
- favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasining ehtiyojlarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi;
- sud muhokamalarida ishtirok etish uchun advokatni (vakilni) tayinlash bilan bog'liq bo'lgan davlat xaridi;
- boshqa yetkazib beruvchi tomonidan mahsulot yetkazib berish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, litsenziya bitimiga (shartnomasiga, kontraktiga) asosan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) intellektual faoliyat natijalari muallifidan yoki intellektual faoliyat natijalaridan mutlaq foydalanish huquqiga ega bo'lgan yetkazib beruvchidan, shuningdek fan, adabiyot va san'at asarlari, ijrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotlarning ko'rsatuvlari yoki eshittirishlari kabi intellektual faoliyat natijalarining ushbu intellektual mulk obyektiga nisbatan mutlaq huquqqa ega bo'lgan yagona shaxsdan davlat xaridi;
- narxi (tarifi) davlat tomonidan tartibga solinadigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi;
- davlat buyurtmachisi faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan xizmat safarlari va boshqa hollar uchun chiptalarning davlat xaridi (avia, temir yo'l va yo'nalishli transportiga), shuningdek yashash xarajatlari;
- boshqa yetkazib beruvchi tomonidan xizmat ko'rsatish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, yetkazib beruvchi tomonidan avval olib kelingan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) kafolat muddati tugaganidan keyin va joriy xizmat ko'rsatish (ehtiyot qismlarni xarid qilish), shuningdek avval xarid qilingan dasturiy mahsulotni kuzatish va (yoki) uni funksiyaviy jihatdan kengaytirish;
- giyohvandlik vositalarini va psixotrop moddalarni saqlash hamda olib kirish (olib chiqish);

 O'ZBEKINVEST ЎЗБЕКИСТОН GK 18	«O'zbekinvest» EISK AJ davlat xaridlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom	RD-GK 18-04 uzb 22 varaqdan 18-chisi 28.03.2022
--	---	--

- favqulodda hollarda tabiat hodisalari, epidemiyalar va kasalliklar tarqalishining oldini olish yoki uning oqibatlarini bartaraf etish uchun zarur tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) vakolatli idoralar tomonidan tasdiqlanadigan davlat xaridi;

- tabiiy ofatlarning va texnogen halokatlarning oqibatlarini tezkor bartaraf etish, shuningdek davlat buyurtmachisining to'laqonli faoliyat olib borishiga ta'sir ko'rsatadigan tarzda kommunikatsiyalar, mexanizmlar, jihozlar va boshqa asbob-uskunalar ishdan chiqqan hollarda avariyalarni bartaraf etish uchun tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi;

- O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashining, vazirliklar, idoralar, davlat korxonalari va muassasalarining sanatoriy-kurort va sog'lomlashtirish muassasalariga, bolalar sog'lomlashtirish oromgohlariga yo'llanmalarining, shuningdek madaniy-ommaviy tadbirlarga chiptalarning davlat xaridi;

- O'zbekiston Respublikasining ishlab chiqaruvchilaridan yoki ularning rasmiy dilerlaridan va distribyutorlaridan xarid qilinadigan yangi avtotransport vositalarining, maxsus va qishloq xo'jaligi texnikasining davlat xaridi;

- qo'shimcha ishlarni va xizmatlarni amalga oshirish uchun shartnoma umumiy boshlang'ich summasining 10 foizidan oshmaydigan miqdordagi xarajatlar;

- aviatsiya korxonalari tomonidan ishlab chiqaruvchilardan yoki sertifikatlashtirilgan yetkazib beruvchilardan import shartnomalari bo'yicha xarid qilinadigan aviatsiya texnika jihozlari, shu jumladan havo kemalari, aviadvigatellar va ularning butlovchi qismlari, aviatsiya uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va dasturiy mahsulotlarning davlat xaridi;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, chet davlatlar va hukumatlar rahbarlarining, shuningdek parlament a'zolarining va xalqaro tashkilotlar rasmiy delegatsiyalarining tashriflari munosabati bilan yashash, ovqatlanish, madaniy tadbirlarni tashkil etish hamda o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar, transport xarajatlari, suvenirlar, sovg'alar xaridi va boshqa tashkiliy masalalar uchun nazarda tutilgan xarajatlar;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg'armasidan ajratiladigan mablag'lar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining chet el delegatsiyalarini qabul qilish va xorijiy mamlakatlarga delegatsiyalarni yuborish bo'yicha rejalashtirilgan mablag'lar hisobidan xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar);

- quyidagilar uchun oziq-ovqat mahsulotlarining davlat xaridi:

- davolash-profilaktika va ta'lim muassasalari;
- mehmonxona va restoran xizmatlari ko'rsatish;
- muruvvat va nogironligi bo'lgan shaxslar uylari;
- mehribonlik uylari va internatlar;
- qariyalar uylari;

- fuqarolarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish va davolash, shu jumladan jarrohlik amaliyoti va reabilitatsiya yordami bilan bog'liq xarajatlar;

- mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish yuzasidan "El-yurt umidi" jamg'armasi tomonidan ta'lim dasturlarini tashkil etish, respublikaga xorijiy olimlar va mutaxassislarni, shu jumladan vatandoshlarni jalb etish xizmatlari;

- avval tuzilgan shartnomalardagi yetkazib beruvchilar bilan aloqa, Internet va teleradiouzatish xizmatlari bo'yicha davlat xaridi.

15.3. Tarkibiy bo'linmalarning rahbarlari-xaridlar tashabbuskori ushbu Nizomning 9.4-band bilan belgilangan xaridlar rejasigava 12.4-bandiga muvofiq nomi, talab qilinadigan miqdori, texnik tavsiflari, boshlang'ich qiymati ko'rsatilgan holda to'g'ridan-to'g'ri shartnoma bo'yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotib olish asoslarini keltirgan holda Bosh direktor yoki uning o'rinbosarlari/filial direktori nomiga bayonnoma tuzadi, xaridlar oyi, bayonnoma filialning moliyaviy direktori/moliyaviy masalalar bo'yicha direktor o'rinbosari, shuningdek tovarlarni sotib olish uchun mas'ul shaxs bilan kelishiladi.

 O'ZBEKINVEST SHARHAT NOMINATSI GK 18	«O'zbekinvest» EISK AJ davlat xaridlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom	RD-GK 18-04 uzb 22 varaqdan 19-chisi 28.03.2022
---	---	--

15.4. Bayonnoma tasdiqlangandan so'ng keyingi ishlar 19-bo'limga muvofiq amalga oshiriladi.

15.5. Rasmiylashtirilgan shartnomaning nusxasi tovarlarni xarid qilish bo'yicha mas'ul shaxsga topshiriladi, u esa maxsus axborot portaliga tuzilgan shartnoma to'g'risidagi ma'lumotlarni tuzilgan kundan e'tiboran besh kundan kechiktirmay joylashtiradi.

15.6. To'g'ridan-to'g'ri xaridlar uchun maxsus axborot portalida ma'lumotlarni joylashtirish uchun javobgarlik tovarlarni sotib olish uchun mas'ul shaxs zimmasiga yuklanadi.

To'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzilganligi to'g'risidagi axborot maxsus axborot portaliga joylashtirilmagan bo'lsa, ushbu shartnomalar bo'yicha to'lovlar amalga oshirilmaydi.

16-BO'LIM. YAGONA YETKAZIB BERUVCHIDAN DAVLAT XARIDI UCHUN HUUJATLARNI TAYYORLASH, JOYLASH VA RASMIYLASHTIRISH TARTIBI.

16.1. Qonun hujjatlariga muvofiq, Yagona yetkazib beruvchidan xarid quyidagi istisno hollarda amalga oshiriladi:

- bozorda muqobillari bo'lmagan va faqat yagona yetkazib beruvchidan olish mumkin bo'lgan texnik jihatdan murakkab tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi;
- madaniy qadriyatlarni olish;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlarida yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida yagona yetkazib beruvchi sifatida belgilangan subyektlardan davlat xaridlari;
- tabiiy monopoliya subyekti tovarlarining (ishlarining, xizmatlarining) davlat xaridi;
- o'z vakolatlariga muvofiq faqat davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari yoki ularning tasarrufidagi davlat muassasalari va tashkilotlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan ishlarga yoki ko'rsatilishi mumkin bo'lgan xizmatlarga ehtiyoj paydo bo'lishi.

16.2. Yagona yetkazib beruvchidan xarid qilish uchun Kompaniya yagona yetkazib beruvchilar reestrtdagi (keyingi o'rinlarda Reyestr deb yuritiladi) ma'lumotlardan foydalanadi.

16.3. Yagona yetkazib beruvchidan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotib olish zarurati tug'ilganda, u bilan buyurtmachi o'rtasida shaxsiy kabinet orqali maxsus axborot portalida besh ish kuni ichida ro'yxatdan o'tkazilishi shart bo'lgan to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuziladi.

16.4. Tarkibiy bo'linmalarining rahbarlari reestr ma'lumotlari asosida tovarlar va materiallarni sotib olishning maqsadga muvofiqligini ko'rsatgan holda Bosh direktor (filial direktori, ShK) nomiga yagona yetkazib beruvchidan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotib olish to'g'risida bayonnoma tuzadilar.

16.5. Bayonnoma Bosh direktor (filial direktori, ShK) tomonidan tasdiqlanganidan keyin qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Yagona yetkazib beruvchi bilan yozma shaklda shartnoma tuziladi.

16.6. Kompaniyaning hududiy va ixtisoslashtirilgan bo'linmalari Yagona yetkazib beruvchi bilan shartnoma tuzish, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotib olishdan oldin Bosh kompaniyaning Moliya boshqarmasi bilan kelishishadilar.

16.7. Yagona yetkazib beruvchidan xaridlar natijasida tuzilgan shartnomalar to'g'risidagi ma'lumotlar tovarlarni xarid qilish bo'yicha mas'ul shaxs tomonidan tuzilgan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmay portalga joylashtiriladi.

To'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzilganligi to'g'risidagi axborot maxsus axborot portaliga joylashtirilmagan bo'lsa, ushbu shartnomalar bo'yicha to'lovlar amalga oshirilmaydi.

16.8. Keyingi ishlar 18-bo'limga muvofiq amalga oshiriladi.

 O'ZBEKINVEST DAVLAT XARIDLARI AGENTLIGI GK 18	«O'zbekinvest» EISK AJ davlat xaridlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom	RD-GK 18-04 uzb 22 varaqdan 20-chisi 28.03.2022
--	---	--

17-BO'LIM. DAVLAT XARIDINI BEKOR QILISH

17.1. Kompaniya g'olib bo'lgan tender taklifi qabul qilingunga qadar istalgan vaqtda davlat xaridini bekor qilishga haqli. Davlat xaridlari bekor qilingan taqdirda kompaniya ushbu qarorning asosli sabablarini maxsus axborot portalida e'lon qiladi.

17.2. Kompaniya davlat xaridining bekor qilinganligi uchun javobgar emas, Kompaniyaning noqonuniy xatti-harakatlari (harakatsizligi) natijasida yuzaga kelgan bekor qilish hollari bundan mustasno.

18-BO'LIM. ELEKTRON DO'KON HAMDA NARXLARNI PASHAYTIRISH AUKSIONI, TENDER, ENG YAXSHI TAKLIFLARNI TANLASH BO'LIMLARI, BO'YICHA KOMPANIYA VA IJROCHI O'RTASIDAGI SHARTNOMALARNI RASMIYLASHTIRISH VA O'ZARO HISOB-KITOBNI O'TKAZISH TARTIBI.

18.1. Elektron xaridlarni elektron do'kon va narxlarni pasaytirish auksioni, eng yaxshi taklifni tanlash, tender bo'limlarida amalga oshirishda axborot tizimi avtomatik tarzda g'olibni aniqlaydi va shartnoma tuzadi.

18.2. Buyurtmachi va ishtirokchi o'rtasida ERI dan foydalangan holda tuzilgan shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

18.3. Tovarlarni xarid qilish bo'yicha mas'ul shaxs hujjatlar to'plamini buxgalteriya bo'limiga taqdim etadi, u 10 kun ichida shartnomada ko'rsatilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) qiymati to'lovini maxsus axborot portalining maxsus shaxsiy hisobiga o'tkazadi.

19-BO'LIM. KICHIK QIYMATLI XARID, YAGONA YETKAZIB BERUVCHIDAN XARID BO'LIMLARI, TO'G'RIDAN TO'G'RI SHARTNOMALAR BO'YICHA KOMPANIYA VA IJROCHI O'RTASIDA SHARTNOMALARNI RASMIYLASHTIRISH VA O'ZARO HISOB-KITOBNI O'TKAZISH TARTIBI.

19.1. Yetkazib beruvchilar bilan tegishli shartnoma tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) to'g'ridan-to'g'ri shartnoma bo'yicha, kichik qiymatli xarid, yagona yetkazib beruvchi shartnomasi bo'yicha sotib olish to'g'risidagi bayonnomalar Bosh direktor tomonidan tasdiqlanganidan so'ng, xarid komissiyasining tanlov yoki tender bo'yicha qarori tasdiqlangandan so'ng tuziladi.

19.2. Tovar va materiallar/xizmatlarni sotib olish tuzilgan tegishli shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Manfaatdor bo'lim yetkazib beruvchilar bilan tovarlar va materiallar / xizmatlar uchun shartnoma loyihasini tuzadi. Shartnoma O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va me'yoriy-huquqiy hujjatlari, "O'zbekinvest" EISKning xo'jalik shartnomalari bilan ishlash tartibi (RD-37), yetkazib berish bo'yicha umume'tirof etilgan me'yor va qoidalar talablariga muvofiq bo'lishi kerak.

19.3. Shartnoma qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yozma shaklda tuziladi va quyidagilar nazarda tutilishi kerak:

- bitimning raqami, bitim tuzilgan joy va sana, bitim tuzuvchi tomonlarning ta'rifi bitim matnidan oldin shartnomaning kirish qismi (yoki muqaddima)da qayd etiladi.

- mahsulot nomi (miqdori, sifati, to'liqligi va narxi bo'yicha uning assortimenti), xizmatlar (uning hisob-kitobi, kafolat muddati) ko'rsatilgan shartnoma predmeti.

- tovarlar miqdori O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan miqdorni, o'lchov va tarozilar tizimini belgilash tartibiga muvofiq o'lchov birligida belgilanadi.

- tovarlarni etkazib berish / xizmatlar ko'rsatishning asosiy shartlari sotuvchi va xaridorning majburiyatlarini belgilaydi.

- shartnomaning umumiy summasi.

 O'ZBEKINVEST RUHROTA KOMPAANIYASI GK 18	«O'zbekinvest» EISK AJ davlat xaridlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom	RD-GK 18-04 uzb 22 varaqdan 21-chisi 28.03.2022
--	---	--

- hisob-kitob qilish tartibi: to'lov shartlarini belgilashda shartnomada quyidagilar belgilanadi: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq to'lov valyutasi, shuningdek to'lov muddati.

- tovar va materiallarni yetkazib berish shartlari: jo'natish tartibi, konteyner va qadoqlash.

- tomonlarning javobgarligi: jarima sanksiyalari shartnoma shartlari bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan tomonga nisbatan qo'llaniladigan turli jarimalar ko'rinishidagi har xil turdagi sanksiyalarning ta'riflarini o'z ichiga oladi.

- boshqa shartlar.

- boshqa shartlar.

- shartnoma muddati tomonlar o'z majburiyatlarini bajargunga qadar belgilanadi.

- tomonlarning yuridik manzillari, to'lov rekvizitlari.

19.4. Shartnoma loyihasi davlat xaridlarini amalga oshiruvchi tarkibiy bo'linma rahbari tomonidan imzolanadi va Bosh buxgalter, Moliya direktoriga tasdiqlash uchun kiritiladi.

19.5. Shartnoma loyihasi yuridik bo'limga huquqiy ko'rib chiqish uchun taqdim etiladi - RD-GK 09-02 (Sug'urta va xo'jalik shartnomalari loyihalarini huquqiy ko'rib chiqish tartibi) jarayoniga o'tish, so'ngra Kompaniyaning tegishli rahbariga imzolash uchun taqdim etiladi.

19.6. Ro'yxatdan o'tgandan so'ng, hujjatlar to'plami Buxgalteriya bo'limiga taqdim etiladi, bu erda tovarlar va materiallar / xizmatlarni sotib olish uchun to'lov yetkazib beruvchining hisob raqamiga oldindan o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Tovarlar va materiallarni yetkazib berish/xizmat ko'rsatish tovar va materiallar/xizmatlar to'g'risidagi shartnoma, shuningdek to'lov topshiriqnomalari asosida amalga oshiriladi.

Banklar orqali naqd pulsiz bank o'tkazmasi orqali tovarlar va materiallar / xizmatlar sotib olinganda, Buxgalteriya bo'limiga schyot-faktura va xarajatlar hisob-kitobi taqdim etiladi.

20-BO'LIM. TOVAR VA MATERIALLARNI OLISH, UCHYOTINI AMALGA OSHIRISH VA BERISH TARTIBI.

20.1. Ma'muriy-xo'jalik xizmati yoki tegishli bo'linma/hududiy bo'lim belgilangan tartibda tovarlar va materiallarni kirim daftariga qayd etish uchun omborga yetkazilishini ta'minlaydi.

20.2. Yetkazib beruvchining omboridan tovar va materiallarni qabul qilish uchun ma'muriy-xo'jalik xizmati yoki etkazib berish uchun mas'ul bo'lgan tegishli bo'linma xodimiga belgilangan shakldagi ishonchnoma beriladi. Tovlar va materiallar omborga topshirilgunga qadar sifati, miqdori va xavfsizligi uchun javobgarlik ishonchnoma berilgan shaxs zimmasiga yuklanadi.

20.3. Omborga tovarlar va materiallar qabul qilinganda, kirish nazorati amalga oshiriladi - etkazib berilgan tovarlar va materiallar / xizmatlar shartnoma talablariga muvofiqligi tekshiriladi.

20.4. Shartnoma talablariga rioya qilgan holda - 20.6-bandga, braklar yoki buxgalteriya hisobi bo'limi tomonidan nomuvofiqlik aniqlangan taqdirda - 20.5-bandga amal qilinadi.

20.5. Tovlar va materiallar talablarga to'liq yoki qisman javob bermasa, nuqsonli dalolatnoma tuziladi, etkazib beruvchiga beriladi, tovar va materiallar yetkazib beruvchiga qaytariladi. Ko'rsatilgan xizmat talabga mos kelmagan taqdirda, etkazib beruvchi aniqlangan og'ishlarni imkon qadar tezroq bartaraf qiladi. Qarama-qarshiliklar bartaraf etilgandan so'ng, bajarilgan ishlar to'g'risida Akt imzolanadi.

20.6. Agar yetkazib beruvchi qaytarilgan nuqsonli tovarlar va materiallarni almashtirish imkoniyatiga ega bo'lsa, 20.7-bandga o'ting. Aks holda, 20.8-bandga o'ting.

20.7. Nuqsonli tovarlar va materiallarni Yetkazib beruvchi almashtiradi.

20.8. Yetkazib beruvchi kompaniya tomonidan sotib olingan va keyin nuqson aniqlanganligi sababli qaytarilgan tovar va materiallarga to'langan pulni qaytaradi.

20.9. Yetkazib beruvchining yetkazib berish dalolatnomasi yoki schyot-fakturasi asosida tovar va materiallar Kompaniya omboriga kirim qilinadi. Kirim yozuvi Tovlar va materiallarni qabul qilish

 O'ZBEKINVEST SIYOSIYAT KOMPANIYASI GK 18	«O'zbekinvest» EISK AJ davlat xaridlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom	RD-GK 18-04 uzb 22 varaqdan 22-chisi 28.03.2022
---	---	--

kitobida (FK-GK 18-06) amalga oshiriladi. Materiallar ilova hujjatlarda ko'rsatilgan o'lchov birliklarida hisobga olinadi. Xizmat ko'rsatilgandan so'ng, ish bajarilganligi haqida Akt imzolanadi.

20.10. Tovarlar va materiallar kirim qilinganidan so'ng, barcha yukxatlari, , schyot-fakturalar yoki bajarilgan ishlar haqidagi Aktlar Buxgalteriya bo'limiga o'tkaziladi. Buxgalteriyada barcha ma'lumotlar analitik va sintetik uchytotning ma'lumotlar bazasiga kiritiladi.

20.11. Buxgalteriya bo'limi 1 kun muddatida yukxatlar, schyot-fakturalar yoki bajarilgan ishlar haqidagi Aktlarning barcha nusxalarini (elektron shaklda ham ruxsat etiladi) tovarlarni sotib olish uchun mas'ul shaxsga o'tkazadi.

20.12. Tovarlarini xarid qilish bo'yicha mas'ul shaxs 3 kun muddatda xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi tomonidan shartnomaning bajarilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilingan holda maxsus axborot portaliga joylashtiradi.

20.13. Tarkibiy bo'linmalar tovarlar va materiallarni qabul qilish uchun barcha zarur vizalari mavjud bo'lgan talabnoma-yukxatni to'ldiradilar (FK-GK 18-07), hududiy filiallar tovarlar va materiallarni olish uchun ishonchnomani taqdim etadilar, ushbu ishonchnomaga muvofiq, Bosh kompaniyadan tovar va materiallarni olish uchun yukxati beriladi. Hujjatlar omborchiga topshiriladi, ushbu talablar va yukxatlariga muvofiq tovarlar va materiallar beriladi. Tovar va materiallar xarajatlari Kitobida (FK-GK 18-05) chiqimlar hisobiga kiritiladi. Tovarlar va materiallar berilgandan so'ng, barcha olingan hujjatlar Buxgalteriya bo'limiga o'tkaziladi, u erda analitik va sintetik buxgalteriya ma'lumotlar bazasiga kiritiladi.

20.14. Kompaniya omboridan tovar va materiallarni chiqarish jarayonida buzilish holatlari aniqlangan taqdirda komissiya ishtirokida dalolatnoma tuziladi va tegishli buxgalteriya yozuvlarini yuritish to'g'risida rasmiy buyruq bilan Buxgalteriya bo'limiga taqdim etiladi.

20.15. Ombordagi tovar va materiallar qoldig'i bo'yicha moddiy hisobchi bilan birgalikda inventarizatsiya va materiallarni qabul qilish Kitobidagi (FK-GK 18-06), Tovar va materiallarning chiqim Kitobidagi yozuvlar bo'yicha oylik taqqoslash amalga oshiriladi (FK-GK 18-05) buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan tekshiriladi, Ombor qoldiqlari aniqlanadi.

 O'ZBEKINVEST SAG'IRTA KOMPAANIYASI	«O'zbekinvest» EISK AJ davlat xaridlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom	RD-GK 18-04 uzb
		22 varaqdan 23-chisi 25.02.2025
GK 18		

21-BO'LIM. SIFAT BO'YICHA YOZUVLAR

Yozuv turlari	Yozuv egasi	Qaerda joylashgan	Axborot tashuvchisi: Qog'oz yoki elektron
Tovarlarni, ishlarni, xizmatlarni sotib olish uchun Tanlov ro'yxati (FK-62)	Shartnoma ijrochilari	Tegishli bo'linma	Qog'oz
Xo'jalik shartnomalari	Menejer	Buxgalteriya – asl hujjat Ijrochiga - nusxasi	Qog'oz, elektron
Kamchiliklar to'g'risida Akt	Shartnoma ijrochilari	Tegishli bo'linma, Buxgalteriya	Qog'oz
Tovar va materiallar kirimi Kitobi (FK-GK 18-06)	Omborchi	Ombor	elektron
Tovar va materiallar xarajatlar (chiqimi) Kitobi (FK-GK 18-05)	Omborchi	Ombor	elektron
Tovar va materiallarni berish uchun talab-yukxati (FK-GK 18-07)	Omborchi	Ombor, Buxgalteriya	Qog'oz

22-BO'LIM. SAQLASH

22.1. Ushbu Nizomning asl nusxasi Kompaniya Kotibiyatida saqlanadi.

22.2. Tanlov va tender ishtirokchilarining takliflarini ochish paytida xarid komissiyasi majlisining videomateriallari xarid komissiyasining kotibida saqlanadi.

 O'ZBEKINVEST QO'G'IRIYAT KOMPANIYASI	«O'zbekinvest» EISK AJ davlat xaridlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom	RD-GK 18-04 uzb
		22 varaqdan 24-chisi 25.02.2025
GK 18		

HUJJATNI TEKSHIRISH HAQIDA MA'LUMOTLAR

№ k/k	Kiritish sanasi	Uzaytirish/ Qayta ko'rish/ Bekor qilish	Yozuv egasining lavozimi	Imzo	F.I.Sh.

Kiritildi:

Tovarlar xaridi bo'yicha mutaxassis

K. Gorbunov

**Mamuriy xo'jalik xizmati
boshlig'i**

D. Isaev

Kelishildi:

Bosh direktor

Birinchi o'rinbosari

R. Xalikov

**Bosh direktorning ma'naviy-ma'rifiy
ishlar samaradorligini oshirish,
davlat tili to'g'risidagi qonun
hujjatlariga rioya etilishini
ta'minlash masalalari bo'yicha
maslahatchisi**

I. Oripov

**Korrupsiyaga karshi
ichki nazorat va xavfsizlikni
ta'minlash departamenti
Bosh menejeri**

A. Abdullayev

**Strategik rivojlantirish va sifatni
boshqarish departamenti
Bosh menejeri**

M. Mirsadikov

Yuridik departamenti boshlig'i

B. Yusupov